3 YOSHGACHA BO‘LGAN BOLALARDA PNEVMONIYANING BRONXOOBSTRUKTIV SINDROM BILAN KECHISHINING PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH (FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)

Oxunova Mashxuraxon Jumaboy qizi - assisstent
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Dolzarbligi. Nafas yo‘llari kasalliklari bolalar kasallanishi tarkibida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi va pediatriya amaliyotida muhim klinik muammo hisoblanadi. Ayniqsa, 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda pnevmoniyaning bronxoobstruktiv sindrom (BOS) bilan birga kechishi kasallikning og‘ir shakllarini yuzaga keltiradi va asoratlar rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi.Erta yoshdagi bolalarda bronxlarning anatomik torligi, shilliq qavatning yuqori reaktivligi, mukus gipersekresiyasi va immun tizimning yetarli darajada shakllanmaganligi bronxoobstruksiyaning tez rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Natijada nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligi buzilib, gaz almashinuvi yomonlashadi va nafas yetishmovchiligi rivojlanadi.Adabiyotlar ma’lumotlariga ko‘ra, pnevmoniyaning BOS bilan kechishi 40–70% hollarda uchraydi va ayniqsa 0–3 yoshdagi bolalarda yuqori uchrash darajasiga ega. Shu bilan birga, allergik moyillik, tez-tez respirator infeksiyalar, sun’iy ovqatlantirish, passiv chekish va ekologik omillar kasallik rivojlanishida muhim xavf omillari hisoblanadi.Shu sababli, pnevmoniyaning bronxoobstruktiv sindrom bilan kechishini oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda pnevmoniyaning bronxoobstruktiv sindrom bilan kechishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish.

Material va tekshirish usullari. Tadqiqotda 3 yoshgacha bo‘lgan pnevmoniya tashxisi bilan davolangan 200 nafar bola o‘rganildi. Ulardan 100 nafari Farg‘ona viloyati, 100 nafari Andijon viloyati tibbiyot muassasalarida kuzatildi. Bemorlar klinik, laborator va instrumental usullar yordamida tekshirildi. Klinik tekshiruvda bolalarning umumiy ahvoli, nafas olish tezligi, auskultativ belgilar, bronxoobstruktiv sindromning klinik namoyonlari baholandi. Laborator tekshiruvlar umumiy qon tahlili, C-reaktiv oqsil darajasi hamda zarur hollarda rentgenologik tekshiruvlarni o‘z ichiga oldi. Shuningdek, anamnestik va ijtimoiy-gigiyenik ma’lumotlar (ovqatlanish turi, yashash sharoiti, ekologik omillar, passiv chekish, tez-tez respirator infeksiyalar bilan kasallanish holatlari) tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari bronxoobstruktiv sindrom bilan kechuvchi pnevmoniya rivojlanishida bir qator xavf omillari muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Jumladan, o‘tkir respirator virusli infeksiyalar bilan tez-tez kasallanish 58% hollarda, allergik moyillik 32% hollarda, sun’iy ovqatlantirish 41% hollarda, uy sharoitida havoning ifloslanishi va passiv chekish 27% hollarda aniqlangan. Shuningdek, bolalarning bir qismida immun reaktivlikning pasayishi ham kasallikning og‘ir kechishiga sabab bo‘lishi kuzatildi. Olingan ma’lumotlar profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Xulosa. 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda pnevmoniyaning bronxoobstruktiv sindrom bilan kechishining oldini olish uchun kompleks profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunda bolalarni ko‘krak suti bilan boqishni rag‘batlantirish, respirator infeksiyalarni erta aniqlash va davolash, yashash muhitini sanitariya-gigiyenik jihatdan yaxshilash, passiv chekishni kamaytirish hamda ota-onalar o‘rtasida profilaktik tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarur. Ushbu choralar kasallanish darajasini kamaytirish va bolalar salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.